

## SAMARQAND VILOYATI AHOLISI JOYLASHUVINING HUDUDIY JIHATLARI

**Abdimo‘minov Tog‘oy nazar Abdinaxat o‘g‘li**

*Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**Abduxoliqova Ma‘mura Abdusamat qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyati aholisi joylashuvining hududiy jihatlari hamda aholining hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** aholi, aholi soni, aholi zichligi, shahar aholisi, qishloq aholisi, aholining ish bilan ta’minlanganlik darajasi, aholining notekis taqsimlanishi.

**Annotation:** This article describes in detail the territorial aspects of the settlement of the Samarkand region and the factors influencing the territorial settlement of the population.

**Keywords:** population, population size, population density, urban population, rural population, population employment level, uneven population distribution.

Samarqand viloyati O‘zbekiston Respublikasining markazida, Zarafshon vodiysining o‘rta qismida qadimgi Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan hududda joylashgan bo‘lib, savdo-sotiq, hunarmanchlik, shaharsozlik kabi tarmoqlar rivojlangan. Mintaqa sharq va g‘arb mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy munosabatlarni olib borishda qadimdan katta mavqega ega bo‘lib, qadimgi sivilisatsiyaning asosiy markazi bo‘lgan va hozirda bu hududda qadimgi shaharsozlik an‘analari saqlanib qolgan. Biroq viloyat tabiiy sharoitining turlicha ekanligi va tabiiy resuslarning notekis taqsimlanganligi, aholi manzilgohlarining qulay geografik o‘ringa ega bo‘lgan Zarafshon vodiysida joylashishiga zamin yaratgan.

Ko‘hna, noyob tarixiy obidalarga boy bo‘lgan Samarqand shahri viloyatning markaziy shahri bo‘lib, u 1924-1930-yillarda O‘zbekiston poytaxti vazifasini ham bajargan. Shaharda qadimdan aholi gavjum bo‘lgan. Qadimdan “Sharq jannati” nomni olgan bu shahar Zarafshon daryosining chap sohilida joylashgan dunyodagi


eng koʻhna shaharlardan biridir. Oʻz tarixiga ega boʻlgan Samarqand oʻzining tarixiy obidalari va aholisning madanyati bilan ham boshqa hududdan ajralib turadi. Hozirgi kunda ham Samarqand shahri nafaqat Oʻzbekiston, balki Oʻrta Osiyodagi eng yirik sanoat, fan va madaniyat markazidir. Ushbu shahar oʻzining yuksak ijtimoiy-iqtisodiy, demografik salohiyatiga asoslangan holda respublikadagi yirik Samarqand aglomeratsiyasini shakllantiradi [1]. Samarqand aholi soniga koʻra respublikamizning anʼanaviy ikkinchi shahri va unung dastlabki poytaxti hisoblanadi. Hozirda aholi soniga koʻra (2022 yil 1-yanvar holatiga koʻra 4 312 099 kishi) Samarqand viloyati respublikada birinchi oʻrinda turadi. Shundan kelib chiqib hududning aholisi soni kundan kunga ortib boryotganligini koʻrishimiz mumkin.

Aholi-jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Aholisiz ishlab chiqarishning oʻzi ham, fan va texnikaning rivojlanishi va mavjudligi ham boʻlishi mumkin emas [6]. Shu bilan birga, aholi sanoat, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining, transportning va xizmat koʻrsatish sohalarining asosiy isteʼmolsidir. Shu sababli, aholining soni har bir viloyat uchun muhim omil hisoblanadi [7,8]. Viloyatda aholi soni esa hududlar boʻyicha notekis taqsimlanganligini koʻrishimiz mumkin (1-rasm).

Aholi sonining notekis taqsimlanishiga bir qancha omillar oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Bularga urbanizatsiya, iqlim, suv resurslari, yer resurslari, foydali qazilma konlari va ularning atrof muhitga taʼsiri kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin [6,12].

Samarqand viloyati aholi soni boʻyicha respublikada birinchi oʻrinda va respublika aholisining 11.4 foizini tashkil etishini inobatga olsak, hududdagi aholini ish bilan taʼminlash, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi [2]. Samarqand viloyatining doimiy aholisi sonida qishloq aholisi soni 60% dan koʻpchilikni tashkil etadi. Bu oʻz navbatida qishloqda yashovchi aholining turmush darajasini yuksaltirish kerakligini koʻrsatib turibdi.

SAMARQAND VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA AHOLI SONI  
(01.10.2022)



**1-rasm.** Samarqand viloyati aholisining hududlar bo'yicha taqsimlanishi.

*Izoh:* Jadval ma'lumotlari stat.uz sayti ma'lumotlari asosida to'ldirildi.

Aholi sonining oshishi ko'rsatgichi bo'yicha Urgut, Pastdarg'om tumanlari hamda Samarqand shahri yetakchilik qilmoqda. Jumladan, shahar aholisi o'tgan yilning 1 oktyabridagi 544,4 ming kishidan 550,8 ming kishiga yetgan. Ya'ni, 6,4 mingga ko'paygan. Aholi asosan ekologik holati yaxshi bo'lgan, ichmlik suvi bilan ta'minlangan, elektr energiyasi bilan ta'minlangan, tabiiy gaz, oziq-ovqat mahsulotlari, qandolat mahsulotlari, yog' ishlab chiqarish fabrikalari va sanoatlashgan joylarda ko'p tarqalgan. Aholining asosiy qismi viloyatning tekislikda ko'p tarqalgan bo'lib, ichmlik suvi bilan yaxshi ta'minlanmagan hududlarda esa kamroq tarqalgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28-apreldagi 222-sonli "2022-2026 yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori [4] qabul qilindi. Mazkur qarorning 1-ilovasida hududda 2022-2026 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni ko'paytirish parametrlari belgilab berilgan.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni qabul qilingan bo‘lib, farmon ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Samarqand viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining kelgusi 5 yildagi istiqbolli sohalarini hamda har bir tuman va shaharning o‘shish nuqtalarini belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash masalalari inobatga olingan [8,11].

Aholi soni hamda yalpi sanoat mahsuloti bo‘yicha Samarqand viloyati mamlakatimizda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Tog‘ tizmalari shimoldan esadigan sovuq havo oqimini birmuncha to‘sadi. Yog‘in ko‘proq (250–800 mm) yog‘adi. Sho‘rxok maydonlar deyarli yo‘q. Bo‘z va o‘tloq-allyuvial tuproqli yerlar kattagina maydonni tashkil etadi. Butun aholi sonida mehnatga yaroqli kishilar salmog‘i mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan kam bo‘lsa-da, lekin ishchi kuchlari iqtisodiyotni yuksaltirish uchun keragicha topiladi. Tabiiy sharoit va xo‘jalik yuritishdagi tafovutlarga muvofiq aholi joylashuvida ham tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi. Inson faoliyati uchun eng qulay Zarafshon vodiysida aholi nihoyatda zich yashaydi [14,15]. Bu yerlarda har bir kv. km ga 250 va undan ortiq kishi to‘g‘ri keladi. Adirlarda va tog‘larda har bir kv. km ga 15-20 kishi to‘g‘ri keladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Komilova N.K., Jumaxanov SH.Z., Rajabov F.T. „Inson geografiyasi. “Universitet”, Toshkent-2018.
2. A.S. Soliyev, N.K. Komilova, S.L. Yanchuk, SK.Z. Jumaxanov, F.T. Rajabov, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. “Noshir”, Toshkent-2019.
3. T. A. Abdimo‘Minov. “SURXONDARYO VILOYATI MINERAL BULOQLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI” Academic research in educational sciences, vol. 3, no. 3, 2022, pp. 810-814.
4. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28-apreldagi 222-sonli Qarori.
5. Комилова, Нилуфар, and Ойхумор Рўзикулова. "REGIONAL ASPECTS OF MATERNAL AND CHILD HEALTH IN UZBEKISTAN." *Pedagogika*: 74.

6. Kalonov, B. H., & Latipov, N. F. (2021). Characteristics Of Geographical Location Of The Population Of Navoi Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(2), 477-479.
7. Kalonov, B. H., Latipov, N. F., & Shirinova, M. S. (2021). ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE NAVOI REGION COTTON FIELD. *Мировая наука*, (4), 15-18.
8. Ugli, L. N. F. (2019). Geourbanistic's role in socio-economic geography. *International scientific review*, (LXV), 47-50.
9. Karshibaevna, K. N., Kahramonovna, Z. D., & Normurod Faxriddino'g'li, L. (2022). Some problems with creating a medical-geographical atlas map of Uzbekistan. *International journal of early childhood special education*, 5836-5840.
10. LATIPOV, N. FACTORS INFLUENCING THE TERRITORIAL DISTRIBUTION OF THE POPULATION. *ЭКОНОМИКА*, (9), 105-108.
11. Латипов, Н. Ф. (2017). LOCALITY AND FACTORS AFFECTING THE POPULATION. *Наука и мир*, 1(11), 74-75.
12. Latipov, N. (2022). Urboecology-Interdisciplinary Synthesis of Geography and Ecology. *Middle European Scientific Bulletin*, 24, 16-20.
13. Faxriddin o'g'li, L. N., & Erkaboevich, E. H. (2022). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS RELATION TO THE ENVIRONMENT. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 188-196.
14. Комілова, Н., & Латіпов, Н. (2022). Класифікація населених пунктів регіону Навой на основі екологічної ситуації та факторів впливу на здоров'я населення. *Вісник Харківського національного університету імені В. Н. Каразіна, серія «Геологія. Географія. Екологія»*, (56), 209-213. <https://doi.org/10.26565/2410-7360-2022-56-15>
15. Latipov, N. (2022). INNOVATIVE AREAS OF SOLVING PROBLEMS OF SCIENCE AND PRACTICE Proceedings of the VII International Scientific and Practical Conference Oslo, Norway November 08 – 11, 2022.
16. w.w.w.stat.uz